

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida**

Kelishuvning

12-ILOVASI

**Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun “Visa Business Pay” korporativ plastik kartasini
chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA’RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta’riflardan foydalaniladi:

VISA International – turli xildagi to‘lov mahsulotlarini (kartalarini) emissiya qiluvchi va ularga xizmat ko‘rsatuvchi moliyaviy tashkilotlarni va institutlarni yagona savdo belgisi ostida va yagona standartlar bo‘yicha birlashtiruvchi xalqaro assotsiatsiya.

Avtorizatsiya so‘rovi – Kartadan foydalanib operatsiya o‘tkazish uchun Bank tomonidan beriladigan ruxsat. VISA International To‘lov tizimi texnologiyasi asosida bajariladi.

To‘lovni qaytarish – Savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasi tomonidan Karta hisobvarag‘ini kreditlash uchun transaksiyaga nisbatan Bank belgilagan shaklda pul mablag‘larini har qanday qaytarish.

Ko‘chirma – hisobot davrida Kartadan foydalanib amalga oshirilgan Transaksiyalar to‘g‘risida hisobot.

Kartani chiqarish - “Kapitalbank” ATB Bosh ofisida va/yoki filiallarida amalga oshiriladigan karta tayyorlash.

Bosh ofis – Toshkent sh., Yunusobod tumani, Sayilgoh ko‘chasi, 7 da joylashgan “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi.

Yo‘riqnomalar – ushbu Tartibning ajralmas qismi hisoblangan, VISA xalqaro plastik kartasidan foydalanish bo‘yicha Mijoz uchun qo‘llanma. Yo‘riqnomalarga rioya qilish Mijoz uchun ham, Bank uchun ham majburiy hisoblanadi.

Karta – Bank tomonidan Mijozning nomiga chiqariladigan, Mijozga MKHda mavjud pul mablag‘larini tovarlar/ishlar/xizmatlarga to‘lov qilish va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan elektron terminal qurilmalarda yoki bankomatlarda naqd pul olish uchun tasarruf qilish imkoniyatini beradigan “VISA Business Pay” xalqaro to‘lov plastik kartasi.

Overdraft – Kartochkadan foydalanib o‘tkaziladigan xarajat operatsiyalari summasining To‘lov limitidan ortishi.

PIN – Karta hisobvarag‘idan bankomatlar (kartalardan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida naqd pul berish uchun avtomatlashtirilgan qurilmalar) orqali naqd pul olishda va savdo terminallari orqali tovarlar/xizmatlar/ishlar uchun to‘lov qilishda foydalanish uchun mo‘ljallangan shaxsiy identifikatsion raqam.

To‘lov limiti – Mijozning Karta hisobvarag‘ida joylashtirilgan pul mablag‘lari summasi.

Savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonasi – Kartani tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov sifatida qabul qiluvchi har qanday yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

Karta hisobvarag‘i – Mijoz uchun Bankda AQSH dollarida ochilgan, Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitob qilishga mo‘ljallangan maxsus karta hisobvarag‘i.

Transaksiya – tovarlar/ishlar/xizmatlar haqini to‘lash uchun Karta yordamida amalga oshiriladigan har qanday to‘lov, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida naqd pul olish operatsiyasi.

Filial – Operatsiya boshqarmasi (OPERU) yoki Markaziy operatsiya bo‘limi yoki “Kapitalbank” ATB filiallari.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan atama va ta’riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

1.3. Ushbu Tartibda va/yoki Yo‘riqnomada va/yoki Kelishuvda va/yoki Bankning boshqa hujjatlarda belgilanmagan atama va tushunchalar “VISA International” hujjatlarida, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi va Taraflar o‘rtasida tuzilgan boshqa shartnomalarda belgilangan mazmunda, iboraning matnidan kelib chiqib, ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosи hamda sharhi bo‘yicha qo‘llaniladi.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Tartib Karta hisobvarag‘i ochish va Karta chiqarishga Mijoz tomonidan qo‘lda (qog‘oz shaklida) yoki ERI bilan (IBK tizimi bo‘yicha elektron shaklda) imzolangan Arizaga (keyingi o‘rinlarda “Ariza” deyiladi) asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi) va “Visa Business Pay” korporativ plastik kartasini chiqarish shartlarini belgilaydi hamda Bank tomonidan AQSH dollarida chiqarilgan “Visa Business Pay” korporativ plastik kartalaridan foydalanib hisob-kitoblar amalga oshirish bo‘yicha Bank tomonidan xzmat ko‘rsatish maqsadida Bank va Mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Bank Tariflar, shuningdek, Ariza, birgalikda Mijoz va Bank o‘rtasida “Visa Business Pay” kartasini chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish Shartnomasi (keyingi o‘rinlarda – “Shartnomasi”) orqali tuzilgan hisoblanadi.

III. KARTA HISOBVARAG‘I OCHISH VA KARTA CHIQARISH TARTIBI

3.1. Mijoz Karta hisobvarag‘i ochish va Karta chiqarilishi uchun Bankka Karta hisobvarag‘i ochish va Karta chiqarish to‘g‘risida lozim darajada to‘ldirilgan Arizani taqdim qiladi. Karta Bank tomonidan Mijozdan Kartani chiqarish haqida Ariza tushgan kundan va Kartani chiqarilganligi uchun Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to‘langan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida chiqariladi.

3.2. Mijozga Kartani topshirish Karta Filialga va/yoki Bosh ofisdan Filialga kelgan sanadan 1 (bir) ish kunida amalga oshiriladi, Karta Filialga feldyegerlik, pochta aloqasi, kuryerlik xizmati va boshqa usullarda yetkazib beriladi. Bunda Kartani Bosh ofisdan va/yoki Filialga va/yoki Filialdan boshqa Filialga yetkazib berish muddatlari va usullari feldyegerlik, pochta aloqasi, kuryerlik xizmati yoki Kartani yetkazib berishni amalga oshiruvchi Uchinchi shaxslar tomonidan mustaqil belgilanadi.

3.3. Bank Kartani chiqaradi va uni PIN hamda Yo‘riqnomalar bilan birga Mijozga beradi.

3.4. Karta Bankning mulki hisoblanadi va Kartaning amal qilish davriga Mijozga vaqtinchalik foydalanish uchun beriladi. Karta unda ko‘rsatilgan tegishli yilning oxirgi oyigacha amal qiladi. Karta muddati tugashi bilan, almashtirilganda yoki Bankning talabi bilan Bankka qaytarib berilishi shart.

3.5. Sharhnomalar bo‘yicha chiqariladigan Karta tovarlar/ishlar/xizmatlarga to‘lov qilish uchun, bankomatlarda va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan naqd pul berish shaxobchalarida (keyingi o‘rinlarda “NPSH”) naqd pul olish uchun ishlatilishi mumkin. Karta hisobvarag‘idan tegishli to‘lov hujjatlariga asosan joriy xalqaror operatsiyalar (iste‘mol tovarlari, xizmatlar importi va h.k.) uchun foydalanilishi mumkin

3.6. Mijoz Karta chiqarilganligi, Karta hisobvarag‘iga xizmat ko‘rsatilganligi va Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar qayta ishlanganligi uchun Bankka xizmat ko‘rsatish paytida amalda bo‘lgan Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to‘laydi.

3.7. Mijozning Karta yordamida amalga oshirgan transaksiyalari summasi Mijozning Karta hisobvarag‘idan yechib olinadi va Karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirmalarda aks etadi. Kartadan foydalanilganda har bir Transaksiyaning ma’lumotlari AQSH dollarida aks ettiriladi.

3.8. “Visa International” xalqaro to‘lov tizimi talablarini, shuningdek, Karta Bank mulki hisoblanishini inobatga olgan holda:

- Kartadan faqat Kartaning yuzasida ismi ko‘rsatilgan Mijozgina foydalana oladi. Kartani foydalanish uchun uchinchi shaxslarga berish ta’qilanganadi;

- Mijozga Kartani yoki uning rekvizitlarini va/yoki PINni uchinchi shaxslarga, shu jumladan, Mijoz bilan mehnat munosabatlarda bo‘lgan shaxslarga foydalanish uchun berish qat’yan ta’qilanganadi.

3.9. Mijoz ma’lumot lozim ko‘rinishda keladigan va “Visa International” to‘lov tizimi talablarasi asosida Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar uchun to‘liq javobgar bo‘ladi.

3.10. Mijoz Karta yo‘qolganligi to‘g‘risida yozma xabar bersa, Bank Kartaning yo‘qolganligi haqida xabar olgan paytdan 24 soat ichida Mijozning Kartasi bo‘yicha barcha hisob-kitoblarni to‘xtatadi.

3.11. Mijoz Karta hisobvarag‘ini yopish va Kartani qaytarib berish haqidagi yozma arizaga asosan 30 (o‘ttiz) bank kuni o‘tgandan so‘ng Kartani Bankka topshirganidan keyin Karta hisobvarag‘idagi qoldiqni mablag‘ni qaytarish kundagi kurs bo‘yicha o‘zining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘iga qaytarishi mumkin. Karta hisobvarag‘idagi qoldiqni milliy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqqqa qaytarish Arizaga asosan amalga oshiriladi.

IV. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijozning huquqlari:

a) Kartani tovarlar/ishlar/xizmatlarga to‘lov qilish uchun, bankomatlarda va O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan naqd pul berish shaxobchalarida (keyingi o‘rinlarda “NPSH”) naqd pul olish uchun ishlatish. Kartadan ushbu Tartib, Kelishuv shartlariga, Yo‘riqnomalar va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan qoidalarga asosan foydalaniladi;

b) Karta hisobvarag‘i qoldig‘ini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida to‘ldirish;

v) Karta hisobvarag‘i holati haqida ma’lumotni elektron qurilmalar (bankomatlar va POS terminallar) vositasida, shuningdek, karta chiqarishga arizada ko‘rsatilgan va Bank xodimi bilan telefon muloqotlarida ishlatiladigan parolni aytilib telefon (+998 71 233-33-01) orqali olish;

g) Yozma so‘rov bo‘yicha Karta hisobvarag‘i bo‘yicha ko‘chirma olish;

d) Haqiqiyligiga Mijozning shubhasi bo‘lgan va o‘zi amalga oshirmagan transaksiyalarga nisbatan Bankka e’tiroz yuborish. E’tiroz Mijozda shubha keltirib chiqargan sabablarni ko‘rsatgan holda hamda Mijozning shubhalarini tasqidiqlaydigan qog‘ozdagisi hujjatlarni ilova qilgan holda Bankka yozma shaklda yuboriladi;

ye) Kartani va Karta hisobvarag‘ini yopish to‘g‘risidagi Ariza Bankka bilan murojaat qilish. Mablag‘larni qaytarish ushbu Tartibning 3.11 bandiga asosan amalga oshiriladi.

4.2. Bankning huquqlari:

a) Karta hisobvarag‘i ochish va Karta chiqarishga Arizada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish, ishonchhsiz ma’lumotlar bo‘lganda sabablarini ko‘rsatmasdan Karta chiqarishni rad qilish;

b) Mijozning Karta hisobvarag‘idan va talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idan vositachilik haqini akseptsiz tartibda Bank Tariflariga asosasan yechib olish

v) Quyidagi hollarda istalgan paytda Kartani bloklash:

- bunga Mijoz topshiriq berganda;

- Mijoz tomonidan Shartnoma va Yo‘riqnomalarning shartlari va talablari buzilganda;

- pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulklar muzlatilganida, hisobvaraqaqda mavjud pul mablag‘lariga ta’qiq solinganda yoki O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda hisobvaraq bo‘yicha operatsiyalar to‘xtatilganda;

- karta yoki uning rekvizitlari va/yoki PIN uchinchi shaxslarga berilganda;

g) Bir yilda 3-martadan ko‘p yo‘qotilgan Kartanening Karta hisobvarag‘ini yopish va Kartani olib qo‘yish;

d) Mijoz tomonidan Shartnoma shartlari buzilganda va Kartadan foydalanish oqibatida Bank asossiz moliyaviy yo‘qotishlar xavfi ostida qoldirilganda, Bank tomonidan tasdiqlangan jarima sanksiyalarini qo‘llash va Kartani amal qilish muddatini to‘xtatish;

ye) Mijoz tomonidan Karta yoki uning rekvizitlari va/yoki PIN uchinchi shaxslarga berilganda yoki uchinchi shaxs tomonidan Kartadan foydalanib operatsiya o‘tkazilganda:

- Bank tomonidan jarima summasini kamaymaydigan qoldiq summasidan mustaqil ushlab qolish orqali bir tomonlama (suddan tashqari) tartibda kamaymaydigan qoldiqning 50% miqdorida jarima undirish, bundan Mijozning xabari bor va u bunga rozi. Shartnomaning ushbu bandida mavjud bo‘lgan neustoyka (jarima) to‘g‘risidagi Bitim mazkur Shartnomaning amal qilish muddati bilan chegaralanmagan;

- Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish haqida yozma xabarnoma jo‘natish orqali Shartnomani bajarishdan bir tomonlama to‘liq voz kechish, bunday holatda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 382-moddasi, 4-moddasida nazarda tutilgan oqibatlar qo‘llaniladi. Shartnoma Mijoz tomonidan mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish haqida xabarnoma olingan sanadan yoki mazkur Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish haqida xabarnoma Kelishuvning “Taraflarning rekvizitlari va imzolari” bo‘limida ko‘rsatilgan manzilga yoki Bankka oxirgi ma‘lum bo‘lgan manzilga jo‘natilgan vaqtidan 3 (uchinchisi) kunda bir tomonlama bekor qilingan hisoblanadi. Jo‘natiladigan joydagisi pochta aloqasi bo‘limining xatni, telegrammani qabul qilganligi haqida shtempel qo‘yan sanasi yoki xabarnoma Mijozga shaxsan topshirilgan sana xabarnoma jo‘natilgan sana bo‘lib hisoblanadi;

- Bank tomonidan mustaqil aniqlanadigan xavf yuqori bo‘lgan mamlakatlarda va/yoki savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonalarida Kartochkadan foydalanishni cheklash;

yo) Karta hisobvarag‘ida mablag‘lar yetarli bo‘lmaganda savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonasiaga Avtorizatsiya so‘rovini rad qilish.

4.3. Mijozning majburiyatları:

a) Kartadan Shartnoma va Yo‘riqnomaga asosan Karta hisobvarag‘idagi qoldiq pul mablag‘lari doirasida Kartanening yuza qismida ko‘rsatilgan amal qilish muddati mobaynida foydalanish;

b) o‘z PINini sir saqlash, shuningdek, uni Kartadan alohida saqlash, Kartani va/yoki PINni uchinchi shaxslarga bermaslik;

v) Kartani Bank vakolatli xodimlaridan tashqari uchinchi shaxslarga bermaslik;

g) O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi, shuningdek, Mijoz Kartadan foydalanadigan mamlakat qonunchiligi bilan ta‘qilangan tovarlar/ishlar/xizmatlarni sotib olishni hisobga olgan holda Kartadan qonunga zid maqsadlarda foydalanmaslik;

d) Bankning vositachilik haqini Bank Tariflariga asosan to‘lash, shuningdek, Mijoz tomonidan Shartnomani buzish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni to‘lab berish;

ye) Rekvizitlari va manzilining o‘zgarganligi haqida bunday o‘zgarishlar bo‘lgandan keyin 5 (besh) bank kuni ichida Bankni xabardor qilish;

yo) Karta yo‘qolganda/o‘g‘irlanganda/o‘zlashtirilganda yoki Karta olib qo‘yilganda, shuningdek PIN uchinchi shaxslarga ma‘lum bo‘lganda (bo‘lishi mumkin bo‘lganda) yoki Mijozda Karta uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz foydalanilayotganligiga shubha paydo bo‘lganda darhol quyida sanalgan usullardan birida Kartani bloklash:

- +99871 233-33-01 telefon raqami bo‘yicha Call-markaz orqali;

- Bank Mijozni identifikatsiya qilish uchun Mijozdan uning shaxsiy ma‘lumotlarini (F.I.Sh., tug‘ilgan sanasini, kodli so‘zni va h.k) va yo‘qotilgan Karta haqida ma‘lumotlarni (Karta raqami, F.I.Sh., Kartani amal qilish muddati va h.k), shuningdek, Kartani yo‘qolish sabablarini so‘rashi mumkin;

j) Kartani Avtorizatsiya so‘roviz to‘lovga qabul qilish huquqiga ega savdo (xizmat ko‘rsatish) korxonalarida Kartadan foydalanish natijasida kelib chiqqan overdraft summasidagi qarzdorlikni 10 kun ichida so‘ndirish;

z) Bankning birinchi talabi bilan Kartani taqdim qilish.

4.4. Bankning majburiyatları:

a) Mijozning karta hisobvarag‘ini savdo (xizmat ko‘rsatish) Korxonalarida, bankomatlarda yoki NPSHda Karta yordamida amalga oshirilgan Transaksiyalar summasiga debetlash;

b) Karta hisobvarag'i O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan naqd pulsiz shaklda to'ldirilganda, shuningdek, savdo (xizmat ko'rsatish) Korxonalari yozma yo'riqnomalar va ortiqcha yechib olingen summalarini qaytarishga chek taqdim qilganda Mijozning Karta hisobvarag'ini kreditlash;

v) Mijozning yozma arizasiga asosan Karta hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma berish;

g) Kartani Mijozning yozma talabi bilan bloklash.

4.5. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlar ham ega bo'lishi mumkin.

V.TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

5.2. Mijoz Bankka Kartani yo'qolganligi haqida yozma ravishda xabar bergandan keyin 24 soat o'tib Kartadan foydalanib Avtorizatsiya so'rovi bilan Transaksiyalar amalga oshirilgan bo'lsa, Bank Mijozning moliyaviy yo'qotishlari uchun javobgar bo'ladi.

5.3. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:

- Mijoz tomonidan Shartnoma shartlari va Yo'riqnomalar buzilgan bo'lsa;

- PIN boshqa shaxslarga berilgani uchun;

- PINning uchinchi shaxslarga oshkor bo'lganligi haqida Bankka yozma ravishda xabar berilgunga qadar amalga oshirilgan har qanday Transaksiyalar uchun. Bunday xabarnomadan 24 soat o'tgandan keyin Kartadan biror bir shaxsning firibgarlik bilan foydalanganligi uchun Mijozning javobgarligi bekor bo'ladi, agar, Karta qayta kodlash uchun yozma Arizadan kechiktirilmasdan Bankka topshirilgan bo'lsa;

- Karta yo'qotilganda Bankka yozma xabar berilgunga qadar o'tkazilgan barcha Transaksilar bo'yicha;

- Bankka taqdim qilinadigan barcha ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun.

5.4. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- Bankning nazoratidan tashqarida bo'lgan vaziyatlar sababli o'z majburiyatlarini bajarishning imkoniyati bo'lmasa;

- Kartadan foydalanib sotib olingen tovarlar (xizmatlar)ning sifati uchun;

- turli muassasa va banklar biror-bir sabab bilan tovarlar (xizmatlar)ga to'lovlar qilish operatsiyasini o'tkazish va naqd pul mablag'larini berish uchun Mijozdan Kartani qabul qilishni rad qilganligi uchun;

- boshqa banklar tomonidan Kartadan foydalanib operatsiya o'tkazishga limitlar (cheklovlari) o'rnatilganligi uchun, shuningdek, boshqa banklar yoki muassasalarning Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalarni ro'yxatga olishga mo'ljallangan qurilmalarining bloklanishi va nosozligi Kartani shikastlanishiga yoxud olib qo'yilishiga olib kelgan bo'lsa;

- xorijiy davlatdagi valyuta cheklovi yoki uchinchi tarafning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qurilmalarida (bankomatlar/terminallar) va naqd pul berish shaxobchalarida Kartadan foydalanib amalga oshiriladigan operatsiyalarga qo'yilgan limitlar (cheklovlari) Mijozning manfaatlariiga daxl qilsa;

- Mijoz tomonidan Kartadan foydalanib operatsiya amalga oshirish imkoniyati yo'qligi oqibatida kelib chiqqan ma'naviy zarar va/yoki zararlar uchun.

- Mijozga hududiy Filiallarga feldegerlik, pochta aloqasi, kuryerlik xizmati va boshqa usulda Kartani yetkazish muddatlari uchun.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

6.1. Shartnoma nomuayyan muddatga tuziladi va Taraflardan biri o'zining Shartnomani bekor qilish haqidagi niyatini Shartnomani ehtimoliy bekor qilinishi sanasidan 45 kalender kun oldin yozma xabar berguniga yoki ushbu Tartibda kelishilgan tartibda shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama rad qilingunga qadar amal qiladi.

6.2. Shartnoma bekor qilinganda Kartochkaga xizmat ko'rsatilganligi uchun har oylik to'lov, Karta hisobvarag'i bo'yicha to'lovlarini qayta ishlaganlik uchun to'lov va Karta chiqarilganligi uchun to'lov Mijozga qaytarilmaydi.

6.3. Shartnoma quyidagi shartlarda Mijozning tashabbusiga ko'ra bekor qilinadi:

- Barcha Kartalar Bank Yo'riqnomalariga asosan Bankka qaytarib berilganligi sharti bilan Mijozning yozma arizasiga asosan;

- Mijoz Shartnoma bo'yicha barcha majburiatlarni bajargan bo'lsa;

- Mijozning Bank oldida qarzdorligi mayjud bo'lmasa.

6.4. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

6.5. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.